

## O'ZBEKISTON FARMATSEVTIKA BOZORIDA RIFAMPITSIN DORI VOSITASINING ASSORTIMENTI TAHLILI

M.N. Xuddiyeva<sup>1</sup>, F.S. Jalilov<sup>1</sup>, M.Sh. Olimjonova<sup>1</sup>, F.S. Jalilova<sup>2</sup>

<sup>1</sup>Toshkent farmasevtika instituti

<sup>2</sup>Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7991422>

**ANNOTATSIYA:** Maqolada sil kasalligida qo'llaniladigan dori vositalarining: 2022 yil №26 O'zbekiston Respublikasida qayd etilgan dori vositalari va tibbiy buyumlarning Davlat Reestrlari bo'yicha va dori shakllari bo'yicha tahlili amalga oshirilgan. Silga qarshi ishlatiladigan rifampitsin dori vositalarining farmatsevtika bozoriga kirib kelish dinamikasining ishlab chiqaruvchi davlatlar orasidagi taqsimoti va uning assortiment tahlil natijalari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Sil kasalligi, Davlat Reestri, rifampitsin, dori shakli, content tahlil, assortimenti tahlili.

**Mavzuning dolzarbligi:** 2000 yildan beri sil kasalligini davolash 60 million o'limning oldini oldi[1]. Hozirda bu COVID-19 dan keyingi ikkinchi qotil infeksiya bo'lib kelmoqda. Barcha bemorlarning 56 foizini erkaklar, 33 foizini ayollar, 11 foizini bolalar tashkil qiladi[2]. Bugungi kunga kelib sil kasalligini davolashning asosi ko'p komponentli silga qarshi kimyoterapiya hisoblanadi. Isoniazid va rifampitsin Mycobacterium tuberculosisga qarshi eng yuqori faollikka ega, shuning uchun yangi tashxis qo'yilgan sil kasalligi bilan og'rigan bemorlar uchun zamonaviy kimyoterapiya strategiyasi ushbu dorilarning kombinatsiyasidan foydalanishga asoslangan[3]. Rifampitsinni silga qarshi boshqa dorilar (isoniazid, pirazinamid, streptomitsin va etambutol) bilan birlashtirish ko'pchilik bemorlarni davolashda samarali natija beradi[4].

2001 yil 11 may 215-II-son bilan tasdiqlangan va 2021 yil 4 aprel sanasi holatida keltirilgan "Aholini sil kasalligidan muhofaza qilish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonunida sil kasalligini oldini olishga qaratilgan ijtimoiy, tibbiy, sanitariya-gigienaga oid. epidemiyaga qarshi




va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirishning, shuningdek sil kasalligiga chalingan bemorlarni aniqlash, davolash, dispanser ko'rigidan o'tkazish va reabilitatsiya qilishning xuquqiy asoslari belgilangan[5].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 fevraldagi "Ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya yordami ko'rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4191-son qarorida muhim vazifalar belgilab berilgan. Tibbiyot amaliyotida Sil kasalligiga qarshi dori vositalari keng qo'llaniladi. Hozirgi kunda ilm-fan, texnika, kimyo sanoatini rivojlanishi bilan bir qatorda ko'p mamlakatlarda har xil guruhlariga mansub turli-tuman sintetik preparatlar tibbiyot sohasiga kirib kela boshladi[6]. Bunday dori vositalari organizmda paydo bo'lgan patologik jarayonni normal holatga keltirish bilan bir qatorda, ayrim hollarda me'yoridan ortiq qo'llash oqibatida yoki organizmda kumulyatsiyalanishi natijasida kuchli zaharlanish holatlariga olib kelishi mumkin[7].

**Tadqiqotning maqsadi.** O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika bozorining ma'lum bir qismini tashkil etgan sil kasalligini davolashda ishlatiladigan rifampitsin dori vositalarining toksikologik ahamiyatini inobatga olgan holda ushbu preparatlarning O'zbekiston farmatsevtika bozorida tutgan o'rni tahlilini o'tkazish.


**Tadqiqot materiali va usullari:** tahlil jarayonida ob'ekt sifatida "O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat Reestri"dan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalari va muhokamalari:** 2022 yildagi №26-son dori vositalari va tibbiy buyumlarning Davlat Reestri ma'lumotlariga foydalanilgan holda Dori vositalarning kontent va assortiment tahlili amalga oshirildi[8]. Dori vositalarning kontent va assortiment tahlili ularning bozordagi holati, ularning davlatlar orasidagi ulushi, shuningdek tegishli guruh moddalari haqida umumiy taassurotni hosil qilishga ko'maklashadi[9-29]. Tadqiqotlarga asosan O'zbekiston hududida umumiy 33 nomda Silga qarshi dori vositalaridan foydalanilmoqda. Ushbu dori vositalarining assortimentidagi 33 ta preparatdan 14 tasi (41.2%) xorijiy ishlab chiqaruvchilar, 12 tasi (35,3%) MDH davlatlari ishlab chiqaruvchilari va 7 tasi (23,5%) mahalliy ishlab chiqaruvchilar ulushiga to'g'ri kelishi aniqlandi.



**1-rasm. O'zbekiston farmatsevtika bozoridagi Silga qarshi dori vositalarining ulushi**

Tadqiqotimizning keyingi bosqichida rifampitsin dori preparatini ishlab chiqaruvchi davlatlar orasidagi taqsimoti o'rganildi. Ular haqidagi ma'lumotlar 2-rasmda keltirilgan. Bunda eng ko'p O'zbekiston va Hindiston davlatlarida ishlab chiqarilgan preparatlari O'zbekiston bozorida mavjud ekanligi aniqlandi. Tahlil natijalari bu preparatlarni 6 davlat bular: Hindiston, O'zbekiston, Belarusiya, Ukraina, Rossiya va Fransiya kabi davlatlarning farmatsevtik kompaniyalari va firmalari tomonidan ishlab chiqarilishi aniqlandi. Bunda tahlil natijalari Davlat Reestri boyicha ishlab chiqarilgan barcha turdagi dori vositalariga nisbatan olindi.



### 2-rasm. O'zbekiston farmatsevtika bozoridagi rifampitsin dori preparatini ishlab chiqaruvchi davlatlar orasidagi taqsimoti

Tadqiqotimizning keyingi bosqichida rifampitsin silga qarshi dori preparatini ishlab chiqaruvchi korxonalar bo'yicha taqsimoti o'rganildi (2-jadval).

2-jadval

### O'zbekiston Respublikasida qayd etilgan rifampitsin dori preparatining o'tgan ishlab chiqaruvchi korxonalar bo'yicha taqsimoti

(2022 yilga nisbatan olindi)


No t/t	Xalqaro patentlangan nomi	Savdo nomi	Ishlab chiqarilgan shakli	Ishlab chiqaruvchi davlat	Ishlab chiqaruvchi korxonalar, firma
1	ОТОФА (Otofa)	Rifamycin	Капли ушные 2,6% по 10 мл (флаконы)	Франция	Laboratories Bouchara Recordati, Франция произведено: PHARMMASTER
2	РИФАМПИЦИН 150 МГ И ИЗОНИАЗИД 75 МГ (Rifampitsin 150)	Rifampicin, Isoniazid	Таблетки, покрытые пленочной оболочкой 150 мг+75 мг N84 (3x28),	Индия	Macleods Pharmaceuticals Ltd

	mg va Isoniazid 75 mg)		N100 (10x10), N672 (24x28) (блистеры)		
3	Р-ЦИН (R-Sin)	Rifampicin	Капсулы 150 мг, 300 мг N100 (10x10) (блистеры)	Индия	Concept Pharmaceuticals Limited, Индия произведено: Lupin Limited
4	РИФАМПИЦИН (Rifampicinum)	Rifampicin	Капсулы 150 мг N20 (2x10) (блистеры)	Украина	Борщаговский ХФЗ, ПАО, НПЦ
5	РИФАМПИЦИН (Rifampicinum)	Rifampicin	Капсулы 150 мг, 300 мг N20 (2x10), N30 (30x10), N50 (5x10), N100 (10x10) (упаковки контурные ячейковые), N500, N1000, N2000, N5000 (банки полимерные)	Россия	Фармасинтез, АО
6	РИФАМПИЦИН- БЕЛМЕД (Rifampicinum)	Rifampicin	Капсулы 150 мг N20 (2x10), N900 (90x10), N1500 (150x10) (упаковки контурные ячейковые)	Беларусь	Белмедпрепараты, РУП
7	АНТИТУБ-2 (Antitub-2)	Comb.drug (Isoniazid, Rifampicin, Pridoxine hydrochloride )	Таблетки, покрытые пленочной оболочкой 100 мг/150 мг/10 мг; 300 мг/450 мг/20 мг N20 (2x10), N100 (10x10); N500 (50x10); (контурные ячейковые упаковки); N100; N500 N1000;	Узбекистан	Zomin Pharm, ООО (упак.), (произ.) Фармасинтез, ОАО, Россия

			(банки полимерные)		
8	ОТИНФРА (Otinfra)	Rifamycin	Капли ушные 2,6% 10 мл (флаконы капельницы)	Узбекистан	Aseptica, OOO
9	Р-ЦИН (R-Sin)	Rifampicin	Капсулы 150 мг, 300 мг N20 (2x10), N30 (3x10), N50 (5x10), (контурные ячейковые упаковки) N100, N500, N1000 (банки)	Узбекистан	LUPIN LIMITED, Индия (произ.), WELL MED PHARM, ИП OOO (упак.)

2-jadval natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, 2022 yilda o'rganilganda jami 9 ta ishlab chiqaruvchi korxonalar O'zbekiston Respublikasi bozoriga rifampitsin dori preparatini olib kiritgan ma'lum bo'ldi. Shuningdek ushbu preparatlarning 2 tasi polipreparatlar bo'lib 7 tasi faqat rifampitsin dori moddasini saqlovchi monopreparatlar hisoblanadi.

Rifampitsin dori preparatining dori shakli bo'yicha tahlili natijalariga asosan ularning 55,56% kapsula dori shaklida ekanligi aniqlandi. Qolgan dori shakllari mosh ravishda 22,2% ulishdan tabletka va quloq tomchi dori shaklida ekanligi aniqlandi (3-rasm).



**3-rasm. Rifampitsin dori preparatining dori shakli bo'yicha taqsimoti**

**Xulosa.** Natijalardan ko'rinib turibdiki mamlakatimizda ishlab chiqarilgan Rifampitsin dori vositalar shakli turi va soni jihatidan yetakchilikni egallamoqda. Undan keying o'rinni Hindiston davlatida ishlab chiqarilgan vositalar tashkil qilmoqda. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki rifampitsin preparati O'zbekiston bozorida keng miqyosida ishlatilmoqda va ularning asosiy qismi sintetik preparatlar bo'lib, kuchli ta'sir qiluvchi vositalardir. Ularning savdosini nazorat qilinmasligi bu preparatlar bilan zaharlanish holatlarini kuzatilishiga sabab bo'lishi mumkin, bunday holatlarni aniqlash uchun maxsus usullarni ishlab chiqish, shuningdek O'zbekiston farmatsevtika bozorida tutqanoq kasalligiga qarshi dori preparatlari turli tumanligi, ular bilan davolashda har bir bemor uchun maxsus dozalarni aniqlashda yordam beradigan maxsus kimyo-toksikologik va biofarmatsevtik tahlil usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi.



### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шелкова Е. С., Романенко В. В. Туберкулез вчера, сегодня, завтра //Медицинский алфавит. – 2015. – Т. 1. – №. 6. – С. 34-42.
2. Кульчавеня Е. В. Внелегочный туберкулез во время пандемии COVID-19: особенности выявления и течения //Consilium Medicum. – 2021. – Т. 23. – №. 7. – С. 585-589.
3. Аксенова В. А., Леви Д. Т. Туберкулез у детей и подростков //БИОпрепараты. Профилактика, диагностика, лечение. – 2012. – №. 1 (44). – С. 22-27.
4. Олимжонова М. Ш., Жалилов Ф. С., Султонова Г. А. АНАЛИЗ ЛЕКАРСТВЕННЫХ СРЕДСТВ ПРИМЕНЯЕМЫХ ПРИ ТУБЕРКУЛЕЗЕ ЗАРЕГИСТРИРОВАННЫХ В ГОСУДАРСТВЕННОМ РЕЕСТРЕ ЛЕКАРСТВЕННЫХ СРЕДСТВ И МЕДИЦИНСКИХ ИЗДЕЛИЙ //«PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF BIOLOGY, MEDICINE AND PHARMACY» 8-9 December, 2022. – Т. 2306. – С. 148.
5. Рахмонов Ш. С., Нарзиев Ш. М. THEORETICAL ANALYSIS OF INDUSTRIAL ACCIDENTS AND OCCUPATIONAL DISEASES //техНика. – 2021. – №. 2. – С. 23-27.
6. Гоженко А. И. и др. Влияние рифампицина на функциональное состояние почек белых крыс //Нефрология. – 2005. – Т. 9. – №. 2. – С. 101-103.
7. Суванова Ф. и др. Ўпка туберкулёзи билан касалланган ҳомиладор аёлларнинг ретроспектив текшируви //Журнал вестник врача. – 2015. – Т. 1. – №. 03. – С. 53-55.
8. O'zbekiston Respublikasida qayd etilgan dori vositlari va tibbiy buyumlar Davlat Reestri 2018-2022 yillar
9. Saidkarimova Y.T., Jalilov F.S. The role of lamotrigine in the pharmaceutical market of Uzbekistan. Abu Ali Ibn Sina and innovations in modern pharmaceuticals. Collection of articles of the 5th international scientific and practical conference. - Tashkent. 2022. - P. 185-186.
10. Рамазонова К.Р., Жалилов Ф.С. Тутқаноққа қарши дори воситаларининг ўзбекистон фармацевтика бозорида тутган ўрни // Инфекция, иммунитет и фармакология. – Тошкент, 2019. – №2. – Б. 175-181
11. Тилаков Ж.Р., Жалилов Ф.С., Ҳайдаров В.Р., Султонова Г.А., Темиров Б.Б. Пастилка дори шакли ва уни Ўзбекистон фармацевтика бозорида тутган ўрни // Ўзбекистон





- фармацевтик хабарномаси. – Тошкент, 2014. –№4. -Б. 47-51.Jalilov F. S. Antidepressantlarning O‘zbekiston farmasevtika bozorida tutgan o‘rni //Apteki Uzbekista.– Toshkent. – 2016. – №. 3. – С. 8-11.
12. Jalilov F. S. Antidepressantlarning O‘zbekiston farmasevtika bozorida tutgan o‘rni //Apteki Uzbekista.–Toshkent. – 2016. – №. 3. – С. 8-11.
13. Алиев С.У., Зайнутдинов Х.С. Анализ рынка йодсодержащих лекарственных средств, применяемых при эндемическом зобе // Фармацевтический журнал. – Ташкент. 2009. №2. –С. 9-13.
14. Д.Т. Гаибназарова, Ф.С. Жалилов, Г.У. Тиллаева, Д.Т. Шарафутдинова Ўзбекистонда ишлаб чиқариладиган тиш геллари таркибидаги асосларни таҳлили // Тиббиётда янги кун 2 (30), 96-98
15. Тиллаева У.М., Туляганов Р.Т. Фармакологический исследования и фармацевтический анализ гели фенсулкала Научно-практический журнал Farmatsiya. – Ташкент. 2022. №1. –С. 12-17.
16. Самадов, Б. Ш., Джалилов, Ф. С., Мусазода, С. М., & Джалилова, Ф. С. (2023). ЛЕКАРСТВЕННЫЕ ФОРМЫ НА ОСНОВЕ ЛЕКАРСТВЕННОГО РАСТЕНИЯ MOMORDICA CHARANTIA L. Журнал химии товаров и народной медицины, 2(1), 139–162. <https://doi.org/10.55475/jcgtm/vol2.iss1.2023.149>
17. Sh M. S., Voltaev M. M., Jalilov F. S. CONTENT ANALYSIS OF ANTI-CANCER DRUGS FOR 2022 //Електронне видання мережне Редакційна колегія: проф. Котвіцька АА, проф. Владимірова ІМ, проф. Георгіянц ВА, проф. Перехода ЛО, проф. Журавель ІО, проф. Колісник СВ, доц. Криській ОС, проф. Власов СВ, ас. Смєлова НМ, ас. Григорів ГВ. – 2023. – С. 52.
18. Voltaev M. M., Sh M. S., Jalilov F. S. PREPARATION AND DRYING OF BROCCOLI HERBS (BRASSICA OLERACEA L.) //Електронне видання мережне Редакційна колегія: проф. Котвіцька АА, проф. Владимірова ІМ, проф. Георгіянц ВА, проф. Перехода ЛО, проф. Журавель ІО, проф. Колісник СВ, доц. Криській ОС, проф. Власов СВ, ас. Смєлова НМ, ас. Григорів ГВ. – 2023. – С. 19.



19. Saidkarimova Y. T. et al. O'ZBEKISTON FARMATSEVTIKA BOZORIDAGI GABAPENTIN VA LOMATRIDJIN DORI VOSITALARINING ASSORTIMENT TAHLILI //Yosh Tadqiqotchi Jurnal. – 2023. – T. 2. – №. 2. – С. 131-142.
20. Saidkarimova, Y. T., Jalilov, F. S., & Rakhimova, E. E. (2022). POSITION ANTICONVULTS GABAPENTIN ON PHARMACEUTICAL MARKET OF UZBEKISTAN. Редакційна колегія, 200.
21. Зокирова, Г. Р., Жалилов, Ф. С., & Султонова, Г. А. (2021). НЕЙРОЛЕПТИК ДОРИ ВОСИТАЛАРНИНГ КОНТЕНТ ТАҲЛИЛИ КОНТЕНТ АНАЛИЗ НЕЙРОЛЕПТИЧЕСКИХ ЛЕКАРСТВЕННЫХ ВЕЩЕСТВ Тошкент фармацевтика институти. O'ZBEKISTON FARMATSEVTIK XABARNOMASI, 27.
22. Abbosov, N. N., Jalilov, F. S., Safarov, M. B., & Normamatov, R. Q. (2023). O 'SIMLIKLAR HIMOYASI UCHUN ISHLATILADIGAN FUNGITSIDLARNING O 'ZBEKISTON BOZORIDA TUTGAN O'RNI. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 2(3), 42-48.
23. Сафаров, М. Б., Жалилов, Ф. С., Аббосов, Н. Н., & Нормаматов, Р. Қ. (2023). ЎЗБЕКИСТОН ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ИШЛАТИЛАДИГАН ИНСЕКТИЦИДЛАР ВА АКАРИЦИДЛАР ВА УЛАРИНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШ ШАКЛЛАРИ. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 2(3), 36-41.
24. Гаибназарова, Д. Т., Жалилов Ф. С., Тиллаева, Г. У., & Шарафутдинова, Д. Т. (2020). Ўзбекистонда ишлаб чиқариладиган тиш геллари таркибидаги асосларни таҳлили. Тиббиётда янги кун , 2 (30), 96-98.
25. Tillaeva, U. M., Gaibnazarova, D. T., Jalilov, F. S., & Abdullaev, B. S. (2020). Significance, Effectiveness and Prospects of Development of Enzyme Preparations in Modern Pharmaceutical Practice. Indian Journal of Forensic Medicine & Toxicology, 14(4), 7642-7652.
26. Khusainova R. A. et al. Content analysis of the nomenclature of drug antibiotics of the cephalosporin range of the pharmaceutical market of the Republic of Uzbekistan //Rizaeva, NM Choice of composition and development of technology for glyhiszine tablets (Doctoral dissertation, Thesis of on the scientific degree competition of the candidate of pharmaceutical sciences). – 2019.
27. Юнусходжаева Нодира Абдулхамидовна, Гулямова Дурдона Рустамовна, Тоштемирова Чарос Тоштемировна, Нормахаматов Нодирали Сохобаталиевич,



- Турабоев Абдулхамид Абдувохид Ўғли МЕСТО ПРОТИВОДИАБЕТИЧЕСКИХ ПРЕПАРАТОВ В АССОРТИМЕНТЕ ЛЕКАРСТВЕННЫХ СРЕДСТВ, ПРИМЕНЯЕМЫХ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН // Universum: медицина и фармакология. 2021. №12 (83). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mesto-protivodiabeticheskikh-preparatov-v-assortimente-lekarstvennyh-sredstv-primenyaemyh-v-respublike-uzbekistan> (дата обращения: 30.05.2023).
28. Sarvarova, D. M., Madatova, N. A., Yunuskhodzhaeva, N. A., & Iminova, I. M. (2023). Study Of The Assortment Of Antioxidant And Hemostatic Medicines Registered In The Republic Of Uzbekistan. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 1028-1033.
29. Madatova N. A., Ibragimova G. B. PHARMACOECONOMIC ANALYSIS OF MEDICINES USED IN THE TREATMENT OF ITSENKO-CUSHING'S DISEASE //Conferencea. – 2022. – С. 81-82.